



TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASH JARAYONIDA O'QITUVCHILARNING INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATLARINI TASHXISLASH TURLARI VA PRINSIPLARI

Tosheva N.T.

*BuxDPI Maktabgacha ta'lim kafedrası
p.f.f.d (PhD), v.b professor*

Tayanch so'zlar: innovatsion, tashxislash, kasbiy innovatsion faoliyat, yaxlit tarzda tashxislash, modernizatsiyalash.

Ключевые слова: инновация, диагностика, профессиональная инновационная деятельность, целостная диагностика, модернизация.

Key words: innovation, diagnostics, professional innovative activity, holistic diagnostics, modernization.

O'qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatlarini tashxislash turlari va tamoyillari o'ziga xos bo'lib, ularni nazariy jihatdan tahlil etish uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirish uchun alohida ahamiyatga ega. O'qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatlarini tashxislashning quyidagi asosiy turlari mavjud. Ular:

- O'qituvchilarning kasbiy innovatsion faoliyatlarini yaxlit tarzda tashxislash.
- O'qituvchilarning kasbiy innovatsion faoliyatlarini oraliq tashxislash.
- O'qituvchilarning kasbiy innovatsion faoliyatlarini qisman tashxislash.
- O'qituvchilarning kasbiy innovatsion faoliyatlarini oldindan dastlabki tashxislash. - Bunday tashxislash kirish testlari yordamida amalga oshiriladi.
- O'qituvchilarning kasbiy innovatsion faoliyatlarini yakuniy tashxislash.

O'qituvchilarning kasbiy innovatsion faoliyatlarini oldindan tashxislashning maqsadi: tinglovchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini rivojlantirish dasturini va shu yo'nalishdagi ish rejasini tuzish uchun ularning mavjud kasbiy darajasini aniqlashdan iborat.

O'qituvchilarning kasbiy innovatsion faoliyatlarini yakuniy tashxislashdan ko'zlangan maqsadesa: pedagoglarning malakasini uzluksiz oshirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon sifati va samaradorligini baholash, ularni rivojlantirish dasturiga muntazam tuzatishlar kiritish, tinglovchilarning pedagogik innovatsiyalarni



o'zlashtirish jarayonlarini tashkil etish va bu jarayonning mazmunini aniqlash asosida o'quv dasturlari, ma'ruza matnlari va ish rejasini tuzishdan iborat.

O'qituvchilarning kasbiy innovatsion faoliyatlarini tashxislashdan ko'zlanadigan asosiy maqsad: kasbiy pedagogik faoliyatning muayyan darajasini aniqlash, mazkur faoliyatni yaxshilash maqsadida unga tuzatishlar kiritish, kasbiy pedagogik faoliyatnatijalarini obyektiv baholashdan iborat.

O'qituvchilarning kasbiy innovatsion faoliyatlarini oraliq tashxislash bir qator shakllarda amalga oshiriladi:

- ayrim mavzularning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida tezkor nazoratni amalga oshirish;
- o'qituvchilarni test topshiriqlari ustida ishlashga odatlantirish;
- tinglovchilarni kuzatish daftarini yuritish;
- tinglovchilar orasida turli mavzularda tanlovlar o'tkazish;
- ko'rgazmali vositalar yordamida mustaqil ishlashni tashkil etish.

O'qituvchilarning kasbiy innovatsion faoliyatlarini kasbiy tashxislashda bir qator tamoyillarga amal qilinadi:

- tezkorlik va aniqlikka erishish;
- qo'llaniladigan metodikalarning yaxlitligini ta'minlash;
- hosil qilingan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning mustahkamligiga erishish;
- o'qituvchilarning kasbiy innovatsion faoliyatlarini qat'iy mezonlar asosida baholanishini ta'minlash;
- chiqarilgan hukmlar va xulosalarning tadbiq etilgan mezonlarga muvofiqligiga rioya qilish.

Tezkorlik va aniqlikka erishishda - tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini tashxislash maqsadida ularning muayyan mavzu doirasida hosil qilgan kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini tahlil qilish talab etiladi.

Qo'llaniladigan metodikalarning yaxlitligini ta'minlashda o'qituvchilarda hosil bo'lgan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni tashxislashda o'ziga xos tizimga amal qilish zarur. Masalan, tinglovchilardagi kuzatuvchanlikni tashxislashda, ularning xotirasi, diqqati, fikrlash moyilligi, idroki, nutq ko'nikmalari, umumiy kasbiy ko'nikmalarini tahlil qilish nazarda tutiladi.

Hosil qilingan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning mustahkamligiga erishishda tashxislanadigan holatlarning aniqligi, bunda oddiy metodikalarni qo'llash zarurligi nazarda tutiladi. Shu maqsadda tinglovchilarni ularning kasbiy tayyorgarlik darajalari bo'yicha tabaqalash tamoyiliga rioya qilinadi. Yakunida olinadigan ma'lumot tinglovchilar bilan amalga oshiriladigan ishlarni hamkorlikda rejalashtirish va tashkil qilishda foydalaniladi.

O'qituvchilarning kasbiy innovatsion faoliyatlarini pedagogik tashxislashda o'rganish metodidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda o'rganishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Dastlabki bosqich ma'lumotlarni to'plash, ularni tahlil qilish .umumlashtirish

va xulosalar chiqarish, tinglovchilarning muayyan vaqtda erishgan natijalarini mavjud natijalari hamda hamkasblarining ushbu yo‘nalishda erishgan yutuqlari bilan qiyoslash, aniqlangan ko‘rsatkichlarni talab etilgan standart ko‘rsatkichlar bilan muqoyasa qilish, aniqlangan holatlarni tahlil qilish va ma’lumotlarni umumlashtirish asosida mavjud natijalarga baholash, Davlat standartlariva talablarining bajarilmaslik sabablarini aniqlash.

Shu bilan bir qatorda, o‘qituvchilarning kasbiy innovatsion faoliyatlarini tashxislashda bashorat qilish ham muhim o‘rin egallaydi. Pedagogik bashorat yordamida tinglovchilarning kelgusidagi yoki boshqa vaziyatlardagi natijalarini oldindan ko‘rish imkoniyati vujudga keladi. Ish yakunida tinglovchilarning innovatsion pedagogik faoliyatlariga berilgan baholar ular hukmiga havola qilinadi.

Shu asosda istiqbolida ularning kasbiy innovatsion faoliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytiriladi va mazkur maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon mazmuni boyitiladi. Taqdim etilgan ma’lumotlarning tinglovchilar faoliyatiga ko‘rsatadigan ta’sirini aniqlash uchun nazorat ishlarini amalga oshirish lozim.

Tashxislashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatiga dasturiga muvofiq tarzda quyidagi holatlarga e’tibor qarantish talab etiladi.

1. O‘rganish metodini qo‘llash. Bunda:

- a) ma’lumotlarni to‘plash;
- b) to‘plangan ma’lumotlarni o‘zaro qiyoslash;
- v) aniqlangan holatlarga izoh berish;
- g) olingan natijalarni tahlil qilish kabilar amalga oshiriladi.

2. Bashorat qilish.

3. Tinglovchilarga tashxislash natijalarini ma’lum qilish kabilar.

Alohida ajratib olingan tinglovchilarni hamda yaxlit tarzda guruhdagi barcha o‘qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatlari darajasini o‘rganish asosida ular faoliyatida uchraydigan yutuq va kamchiliklar aniqlanadi.

Har bir tinglovchida hosil bo‘lgan kasbiy innovatsion faoliyat darajasi va mazmunini tahlil qilish butun kursdavomida amalga oshirilishi kerak. O‘qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyatlarini tashxislash jarayoni barcha tinglovchilarni to‘liq qamrab olishi va kasbiy innovatsion faoliyat taraqqiyotining muayyan parametrlari bo‘yicha tizimli tashxislash usullari va yo‘llarini aniqlashga erishishimkonini berishi lozim. Aniq bir tinglovchi faoliyatiga oid ma’lumotlarni to‘plash imkonsiz bo‘lgan hollarda (kasalligi yoki boshqa sabablar bilan) kechiktirilgan tarzda bo‘lsada mazkur tadbirni amalga oshirish kerak. Kurs doirasida taqdim etiladigan o‘quv materiallarini o‘zlashtirish asosida kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarning rivojlanish darajasini tashxislash o‘tilgan har bir mavzu bo‘yicha amalga oshirilishi lozim. shu tariqa tashxislash natijalaridan samarali foydalanish imkoniyati vujudga keladi.

O‘qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyati darajasini o‘rganish bo‘yicha belgilangan vazifalarga muvofiq tarzda qo‘llaniladigan metodlarni quyidagicha tasniflash mumkin:



1. Kasbiy faoliyatning psixologik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladigan metodlar.

2. Kasbiy pedagogik faoliyatni tashxislash metodlari (miqdor ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida).

3. Tadqiqotchilik metodlari. Bunday metodlardan o'qituvchilarning ruhiy holatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

4. O'qituvchilar kasbiy pedagogik faoliyatlari rivojlanishini aniqlash maqsadida shakllantiruvchi metodlardan foydalaniladi.

Kasbiy faoliyatning psixologik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladigan metodlar.

Mazkur metodlar dastlabki kuzatish jarayonini amalga oshirish uchun zarurdir. Shuningdek, ushbu metodlardan tinglovchilar bilan tanishish, ularning kasbiy innovatsion faoliyatlarining dastlabki ko'rinishlarini tahlil qilish uchun foydalaniladi. Ushbu metodlardan o'qituvchilar kasbiy innovatsion faoliyatlaridagi o'zgarishlar dinamikasini muntazam kuzatish uchun ham foydalaniladi.

Anketa metodidan esa, o'qituvchilarning kasbiy innovatsion faoliyati darajasini aniqlashga yo'naltirilgan savollarga aniq javob olish maqsadida foydalaniladi. Anketalar vositasida tinglovchilarning fikr-mulohazalarini va shaxsiy sifatlarini aniqlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar olinadi.

Anketa so'rovnomalari ochiq va yopiq turdagi savollardan tashkil topishi mumkin. Anketa savollari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1. O'qituvchining kasbiy pedagogik mahoratini aniqlash imkonini beradigan savollar.

2. Savollar ma'no jihatidan lo'nda, aniq, tushunarli bo'lishi kerak.

3. Ayni bir kasbiy sifatni aniqlash uchun tinglovchining javoblari samimiyligini nazorat qilish maqsadida, bir nechta savollar yo'naltirilishi kerak.

4. Anketa so'rovnomalarining dastlabki qismida oson, undan keyin o'rtacha murakkablikdagi, yakunida esa murakkab savollar bilan murojaat qilinadi. Mazkur jarayonning oxirgi bosqichida o'qituvchilar oldiga yengilroq savollar qo'yish maqsadga muvofiqdir (ilovaga qarang).

Anketa so'rovnomalarini tinglovchilar hukmiga havola qilishda quyidagi afzalliklarni ta'minlash nazarda tutiladi:

tekshirish jarayonining ommaviy xarakter kasb etishi;

ma'lumotlarni tezkorlik bilan yig'ish imkoniyatining mavjudligi;

natijalarni tahlil qilishimkoniyatining kengligi;

statistik metodlardan foydalanish mumkinligi.

Anketa so'rovnomalarini tashkil etishda quyidagi kamchiliklarning mavjudligi kuzatiladi. Ular quyidagilar:

– tinglovchilarning savollarni tushunish darajalarining turlichaligi hisobga olinmasligi;

– javoblarning xolisligi har doim ham ta'minlanmaganligi;

- savollarning qat'iy tartibda bo'lishi respondentlar fikrining cheklanishiga asos bo'lishi; bunday yondashuv natijasida respondentlar savollarga to'liq javob bera olmasliklari mumkin.

Tashxislash jarayoni natijalarining tahlili o'qituvchilar malakasini oshirish tizimi uchun alohida ahamiyatga ega. Bu metod tinglovchilarning oddiy o'quv ishini mohirlik bilan tahlil qilishga asoslangan holda ular to'g'risida zarur ma'lumotlarni olish imkoniyatini beradi.

Aksariyat hollarda tinglovchilar bilan tanishishda dastlabki nazorat ishlari, jumladan insho, bayon, masala yechish va shu kabilardan foydalaniladi. Bu usullar anketa so'rovnomalari va testlarga nisbatan tinglovchilarning o'quv jarayoni, bo'sh vaqtda tashkil etiladigan tadbirlar va boshqa masalalarga munosabatlarini ko'proq darajada aniqlashga ko'maklashadi. Masalan, tinglovchilarning referatlar va insholarni tahlil qilish yo'li bilan ularning kasbiy qiziqishlarinigina emas, balki innovatsiyalarning mohiyatini anglash darajalari, hissiy kechinmalari, kasbiy qiziqishlari hamda pedagogik qobiliyatlari, yozma nutqlari, mustaqil fikrlash tarzleri, obrazli tafakkur qilish darajalarini aniqlash mumkin.

Kuzatish metodi yordamida esa, tinglovchilarning innovatsiyalarni o'zlashtirish faoliyati va xulq-atvorida namoyon bo'ladigan turli xususiyatlarni bevosita idrok qilish, aniqlangan ma'lumotlarni tizimlashtirish va mavjud xulosalarni shakllantirish asosida ularni jamlashdan iborat.

Kuzatish jarayoni ilmiy asosda tashkil etilishi uchun quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

1. Kuzatish jarayoni muayyan maqsadga yo'naltirilganligi, bunda tinglovchilarda muayyan shaxsiy xususiyatlarning namoyon bo'lishi kuzatiladi.

2. Kuzatish jarayonining rejali tarzda amalga oshirilishi, kuzatish boshlagunga qadar muayyan vazifalarni belgilash, aniqlangan ko'rsatkichlar, kamchiliklar, xatolarni bartaraf etish yo'llari, kutilayotgan natijalarni rejalashtirish zarur.

3. Kuzatishning mustaqillik vazifa ekanligi, masalan, tabiatga ekskursiya vaqtida tinglovchilarning kuzatuvchanlik sifatlarini aniqlash uqadar to'g'ri usul emas. Chunki bunday usul bilan to'plangan ma'lumotlar tasodifiy xarakterga ega bo'ladi, bunda asosiy e'tibor tashkiliy masalalarni hal etishga qaratiladi.

4. Kuzatishning tabiiyligi, kuzatish tinglovchilar uchun tabiiy bo'lgan sharoitlarda o'tkazilishi kerak.

5. Kuzatishning tizimliliigi, kuzatish muntazam ravishda, rejaga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

6. Kuzatishning xolisligi, o'qituvchi o'zining taxminlarini tasdiqlash uchun o'zi "kutgan, ko'rishni xoxlagan" narsani emas, xolis dalillarni izlab topishi kerak.

7. Kuzatishning ifodaliligi, ma'lumotlar kuzatish jarayoni yakunida zudlik bilan ifodalanishi lozim.

Kuzatish ko'p mehnat talab qilinadigan jarayondir.

Kuzatish metodi bir qator kamchiliklardan ham xoli emas. Jumladan:

- kutilmagan omillarning ta'sirini bartaraf etishning imkonsizligi;



- barcha holatlarni to‘liq ifodalash imkoniyatining mavjud emasligi;
- kuzatishning passiv xarakter kasb etishi; chunki o‘qituvchi o‘zining rejalariga bog‘liq bo‘lmagan holda namoyon bo‘ladigan vaziyatlarni kuzatadi, u voqealarning borishiga ta’sir ko‘rsata olmaydi;
- kuzatish jarayonining miqdoriy tahlil qilish uchun murakkab bo‘lgan ma’lumotlarni berishi va h.k.

Suhbat asosida bevosita muloqot yo‘li bilan tinglovchilarning kasbiy sifatleri va individual xususiyatlarini aniqlash, oldindan tayyorlangan savollar yordamida talab qilingan ma’lumotlarni olish imkoniyati ta’minlanadi. Bunday suhbatlar nafaqat tinglovchilar, balki ularga dars beradigan professor-o‘qituvchilar, kurs rahbarlari bilan ham o‘tkazilishi kerak. Masalan, professor-o‘qituvchilar bilan suhbatda tinglovchilarning qiziqishlarinigina emas, guruhdagi o‘qituvchilarning xususiyatlarini aniqlash uchun ham qulay sharoit yaratiladi. Shuning uchun ham, bunday suhbatlarni guruhli ish usuli yordamida ham tashkil etish mumkin. Mazkur jarayonda o‘qituvchi guruhdagi tinglovchilarga savollar bilan murojaat qiladi. Savollarga javob olish jarayonida guruhdagi faol tinglovchilar bilan bir qatorda, sustkashlikka yo‘l qo‘yayotgan o‘qituvchilarni ham kuzatishga muvaffaq bo‘ladi. Bunday suhbatlar guruhdagi tinglovchilar bilan tanishish jarayonida yoki ulardan zarur ma’lumotlarni olish davomida amalga oshiriladi.

Suhbatlar qat’iy talablar asosida yoki erkin tarzda o‘tkazilishi mumkin. Qat’iy talablar asosida tashkil etiladigan suhbatlar muayyan dastur bo‘yicha izchillikdagi savollar yordamida amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda olingan javoblar aniq bayon etilishi kerak. Qo‘lga kiritilgan natijalar o‘qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni qay darajada o‘zlashtirganliklari haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Erkin tarzda tashkil etilgan suhbatlarda savollar oldindan rejalashtirilmaydi. Tinglovchilar bilan o‘qituvchi orasidagi muloqot nisbatan erkin, qat’iy chegaralanmagan tarzda amalga oshiriladi. Biroq, bunday suhbatlarni tashkil qilish, o‘tkazish, ularning natijalariga ishlov berish bir qadar murakkabdir. Bunday suhbatlar jarayonida o‘qituvchi oldiga yuqori darajadagi talablar qo‘yiladi.

Suhbatning oraliq shakllari ham mavjud. Bunday suhbatlarda har ikkala turdagi muloqot shakllaridan foydalaniladi.

Suhbatga tayyorgarlik jarayoni o‘ta mas’uliyatli va alohida ahamiyatga ega bo‘lgan jarayondir. Mazkur jarayonda:

1. Suhbatni amalga oshirayotgan o‘qituvchi yechilishi zarur bo‘lgan muammoning barcha jihatlari ustida mushohada yuritishi, suhbat jarayonida zarur bo‘lgan dalillarni to‘plashi talab etiladi. Shuningdek, amalga oshiriladigan suhbatning maqsadini aniq belgilab olish jarayon davomida tinglovchilar oldiga qo‘yiladigan savollarni imkon qadar to‘g‘ri va aniq shakllantirish, kutilmagan savollarni bashorat qilish va ularga javoblar tayyorlash zarur hisoblanadi.

2. O'qituvchi yoritishi zarur bo'lgan masalalarni muayyan ketma-ketlikda tinglovchilar hukmiga havola qilishi, shu asosda savollarning izchilligini belgilab olishi lozim.

3. Suhbat jarayonida zamon va makon uyg'unligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Suhbatlar imkon qadar xolislik va mustaqillik tamoyillariga amal qilgan holda o'tkazilishi zarur.

Ayniqsa, erkin suhbatlarni tashkil etishda quyidagi talablarga amal qilish lozim:

1. Muloqotni, suhbatdoshlar uchun maroqli bo'lgan mavzular asosida boshlash kerak.

2. Suhbat jarayoni ishtirokchilari uchun noxush bo'lgan savollarni o'rtaga tashlamaslik, suhbat jarayonining ishtirokchilari o'zlarining nazorat qilinayotganliklarini his etmasliklariga erishish, buning uchun jarayonning samimiy ruhda bo'lishini ta'minlash, suhbatdoshlarga o'zaro tenglik, subyekt-subyekt munosabatlari asosida yondashish talab etiladi.

3. Muloqot jarayoni ishtirokchilari hukmiga havola qilinadigan savollar muhokamalarning batafsil, erkin tarzda amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qilishi lozim.

4. Savollarda suhbat jarayoni ishtirokchilarining kasbiy tajribasi, pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirganlik darajasi, pedagogik mahorati, ish staji aniq hisobga olingan bo'lishi talab etiladi.

5. Muloqot jarayoni ishtirokchilarida muhokama qilinayotgan mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish hamda ular tomonidan fikrlarga nisbatan hurmat bilan yondashish, suhbat jarayonida xayrihoxlik, o'zaro ishonch, hamfikrlilik, hamkorlik, tabiiylik hukmron bo'lishiga erishish zarur. Ma'lumki, guruh a'zolariga xos bo'lgan kamtarlik, nekbinlik, ular orasida o'zaro ishonch va hurmatni vujudga keltiradi.

6. Suhbat jarayonida o'qituvchi tinglovchilarga nisbatan e'tibor, ularning fikrlarini diqqat bilan tinglashga moyil, ularga keskinlikni bartaraf etuvchi bilvosita savollar bilan murojaat qilish tajribasiga ega bo'lishi kerak. Ayrim tinglovchilarning savollarga javob berishni xohlamasliklari kabi holatlarga hurmat bilan qaray olishi, ularning xohishlariga zid bo'lmagan tarzda zarur ma'lumotlarni qo'lga kiritish imkoniyatlarni izlashi talab etiladi. Agar tinglovchilar oldiga qo'yilgan savollar uning pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa, suhbat davomida ushbu savolni alohida uslubda ifodalagan holda ma'lumot olish imkoniyatini ta'minlash lozim.

7. Suhbat jarayonining ijobiy natija berishini ta'minlash maqsadida ayni bir savolni bir necha qismlarga bo'lgan holda tinglovchilar hukmiga havola qilish maqsadga muvofiqdir.

8. Suhbat jarayonida tinglovchilar hukmiga bilvosita havola qilinadigan savollardan keng foydalanish lozim. Aynan shunday savollar yordamida o'qituvchi tinglovchilarning kasbiy sifatleri, pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirganlik darajasi, mayllari, intilishlari, pedagogik bilimdonliklari, ma'naviy olamini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.



9. O'qituvchi tinglovchilarga nisbatan imkon qadar xushmuomalalik va samimiylik bilan yondashishi talab etiladi. Bunday yondashuv natijasida tinglovchilarda o'zlarining kasbiy bilimlari va shaxsiy sifatlarini namoyon qilishga nisbatan moyillik vujudga keladi.

10. Suhbat jarayonida kutilgan samaradorlikka erishish uchun o'qituvchi o'ta ahamiyatli bo'lgan savollarni turli shakllarda tinglovchilar hukmiga havola qilishi kerak. Shu yo'l bilan tinglovchilarning savollarga bergan javoblari to'ldiriladi.

11. Muloqot jarayonida tinglovchilarning vaqtini tejash hamda ularga hurmat bilan yondashishga alohida e'tibor qaratish kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Suhbat jarayonida vaqtning muvofiqligiga alohida e'tibor qaratish, uning cho'zilmasligi, 30 daqiqadan oshmasligiga alohida e'tibor qaratish kerak.

Tinglovchilar bilan ularning pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish darajalarini aniqlash maqsadida tashkil etiladigan suhbatlar bir qator afzalliklarga ega. Jumladan:

- tinglovchilar bilan muloqot muhitini vujudga keltirish, ularning javoblari asosida kasbiy layoqatlarini aniqlash, pedagogik innovatsiyalarga bo'lgan munosabatlarini baholash;
- qo'shimcha, aniqlovchi savollarga javob qaytarish imkoniyatining mavjudligi;
- vaqtni tejash;
- savollarga imkon qadar to'liq javob olish uchun sharoitning yaratilganligi;
- tinglovchilarning savollarga jiddiy yondashish imkoniyatiga egaliklari kabilar.

Shu bilan bir qatorda, suhbat jarayonida tinglovchilar o'z fikrlari, qarashlarini to'liq bayon etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tinglovchilarning pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirganlik darajalarini tashxislashda bir qator usullardan foydalanish nazarda tutiladi. Bunday usullar guruhdagi tinglovchilarning muayyan psixologik xususiyatlari, pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirganlik darajalarini aniqlash imkonini beradi.

Darajali tashxislash, ya'ni shkalalashtirish ham o'qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirganlik darajalarini aniqlash va obyektiv baholashda muhim ahamiyatga ega. Shkalalashtirish shunday o'lchash metodiki, uning yordamida o'qituvchilarning kasbiy bilimdonliklari, ruhiy holatlari, pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirganlik darajalari muayyan raqamlar, sonli ifodalar yordamida namoyon bo'ladi.

Mazkur shkalalar uchta turga bo'linadi:

Baholovchi shkalalar. Ushbu shkalalar qo'llashning qulayligi, tadqiqot natijalariga ishlov berish va tahlil qilishning matematik metodlaridan foydalanish imkoniyatini berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur metodning muayyan psixik holatlar, bilim, ko'nikma va malakalarning avvaldan ma'lum bo'lgan baholar bo'yicha raqamli ifodalar yordamida modellashtirishni anglatadi.

Masalan, o'qituvchi-o'quvchilar munosabatlari yoki o'qituvchining shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan foydalana olish imkoniyatini baholash uchun quyidagi baholash shkalasidan foydalanish mumkin:

1. Keskin salbiy, ziddiyatli holatlar (-2).
2. Nisbatan salbiy holatlar (-1).
3. Ahamiyatsiz holatlar (0).
4. Nisbatan ijobiy holatlar (+1).
5. To'laqonli ijobiy holatlar (+2).

O'qituvchi ushbu shkaladagi har bir bandlarni batafsil izohlay olishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda ta'lim tizimida keng tarqalgan shkalalashga asoslangan baholash turlaridan biri – reyting baholashdir. Shkalalash asosida baholashning bu turi ruhiy holatlar, bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlar, xulosalar va zarur ma'lumotlarni to'plash asosida ekspertlar tomonidan tashxislashga asoslangan o'lchashning metodini qo'llashdan iborat. Reyting ekspertlarni tanlashga jiddiy yondashuvni hamda baholashning aniq, qulay tizimini talab qiladi. Undan ta'lim metodlarining istibolliligi va tashxislash vositalarining samaradorligini baholash uchun foydalaniladi.

Ranjirlashtiruvchi shkalalar - alohida ko'rsatkichlarni bir-biriga solishtirish yo'li bilan hosil qilinadi. Ko'rsatkichlar namoyon bo'lishiga ko'ra muayyan qatorlarga joylashtiriladi.

Ranjirlashtiruvchi shkalalarning boshqa bir ko'rinishi juft-juft qilib qiyoslash hisoblanadi. Uning mohiyati tinglovchilarni muayyan kasbiy sifat yoki bilim, ko'nikma va malakalarga ko'ra o'zaro bir-birlari bilan qiyoslashdan iborat. Agar mazkur ko'rsatkich har ikkala tinglovchiga teng darajada xos bo'lsa, ularning har biriga bir ball dan qo'yiladi. Agar o'rganilayotgan sifat ulardan bittasida ikkinchisiga nisbatan yaxshiroq rivojlangan bo'lsa, birinchisiga ikki ball, ikkinchisiga esa nol ball qo'yiladi. Har bir tinglovchi bo'yicha to'plangan ballar yig'indisini aniqlab, ushbu kasbiy sifat yoki bilim, ko'nikma va malakalar rivojlanganligi darajasining miqdoriy ifodasiga ega bo'linadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonidagi pedagogik faoliyat va uning natijalarini aniq maqsadga yo'naltirilgan tahlil va tinglovchilarning kasbiy rivojlanishlarini ifodalovchi baholashsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Tinglovchilar bilan olib borilgan pedagogik faoliyat natijalarini muayyan metodikalar asosida maxsus ishlab chiqilgan savolnomalar, topshiriqlar, testlar yordamida ularning bajarilishini bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, ma'lum shaxsiy sifatlar, qobiliyatlar darajasini aniqlashga yo'naltirilgan tahlil qilish asosida baholashning aniq parametrlarini qo'llash talab etiladi.

Tashxislash ta'lim jarayonini aniq maqsadga yo'naltirilgan holda va samarali amalga oshirish uchun katta ahamiyatga ega. U ta'lim-tarbiya jarayoni va uning barcha qismlarini nazorat qilish va tuzatishlar kiritish yo'li bilan tinglovchilarni o'qitish va rivojlantirish jarayonini takomillashtirish imkonini beradi.



O'qituvchining faoliyati bilan tashxislash jarayoni o'zaro uzviy bog'langan yaxlit hodisadir. Har qanday pedagogik jarayonning dastlabki bosqichida tashxislashni amalga oshirish lozim. shuning uchun ham, har bir pedagog pedagogik tashxislash usullaridan yaxshi xabardor va uning metodikalarini to'liq o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Bunda o'qituvchining tashxislash bo'yicha bilimlari mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan metodlarni to'g'ri va aniq qo'llay olishiga imkon beradi. O'qituvchi tashxislash metodikalarini chuqur o'zlashtirish bilan bir qatorda, unga oid bilimlari va mahoratini muntazam yangilab borishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Abduquddusov O., Nuriddinov B.S., Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlash va malakasini oshirish muammolari. –Toshkent, 2001-yil, -113 b.
2. Abdulina O.A. Obshepedagogicheskaya podgotovka uchitelya v sisteme visshego pedagogicheskogo obrazovaniya. – M: prosvesheniye,1990-141 s.
3. Abramov A.T. Intensifikatsiya uchebnogo protsessa v sisteme povisheniye s pomoshyu delovix i gr. –Metodicheskiye rekomendatsii. – Rostov-na-Dokd. –1986-47s.
4. Avloniy A. Turkiy guliston-yohud axloq.-T.:O'qituvchi. 1992 160-b.
5. Avliyoqulov X.N. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – Toshkent,2004-67b.
6. Adizov B.R. Organizatsionno – pedagogicheskiye usloviya sovershenstvovaniya sistemi povisheniya kvalifikatsii uchiteley nachalnix klassov Avtoresr. Kand. Diss.- Toshkent,1990.
- Tosheva Nurzoda Toshtemirovna. Methods and techniques of developing cognitive activities of primary school pupils //ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal, 2020. № 10.(7.13.) Стр 80-87. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1537/943
7. N.T.Tosheva, M.H. Mustafoyeva Registration of age and individual characteristics in education as a pedagogical problem. European scholar journal ISSN(E): 2660-5562 Jurnal Impact Faktor: 7.235 Volume 2, Issue 4 Aprril 2021.– B. 85- 90 <https://scholar.google.com/citations?user=jJE1SeoAAAAJ&hl=ru&oi=ao>
8. N.T.Tosheva, A.M.Ibodullayeva Pedagogical bases of training of qualified pedagogical staff. International Engineering Journal For Research & Development: Vol. 6 No. 3 (2021): VOLUME 6 ISSUE 3 SJIF: 7.169 <http://iejrd.com/index.php/%20/article/view/2228>
9. Тошева Н. Т. Педагогико-психологические подходы к развитию познавательной деятельности учащихся начальной школы //Педагогические науки. – 2011. – №. 6. – С. 44-46.
10. Тошева Н. Т. Организация учебно-познавательных ситуаций начальных классов на основе дидактико-психологических подходов //Новое слово в науке и практике: гипотезы и апробация результатов исследований. – 2017. – С. 42-46.
11. Тошева Н. Т. Бошланғич синф ўқувчиларининг билиш фаолиятини ривожлантиришнинг педагогик-психологик хусусиятлари Fan va jamiyat. – Нукус, 2020. – №2. – Б. 109-111. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1540/942
10. Tosheva Nurzoda Toshtemirovna. Education process directed to the person as the basis of increasing knowing activity of pupils. // The advanced science open access journal. United states, 2013. №6. . Стр. 83-85.

РЕЗИОМЕ

Ushbu maqolada ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida o'qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatlarini tashxislash turlari va prinsiplari, to'g'risida ma'lumot berilgan.

РЕЗИОМЕ

В данной статье представлена информация о видах и принципах диагностики инновационной педагогической деятельности учителей в процессе модернизации образовательной системы.

SUMMARY

This article provides information about the types and principles of diagnosing innovative pedagogical activities of teachers in the process of modernizing the educational system.